



## CHAKANDA ,NA'MATAK, OLXO'RI VA QORA-QANDNING KIMYOVIY TARKIBI VA XALQ TABOBATIDA BO'G'IM KASALLIKLARIDA QO'LLANILISHI

**Asqarov Ibrohimjon Rahmonovich**

Andijon davlat universiteti

Kimyo fanlari doktori, Kimyo kafedrası professori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi, O'zbekiston "TABOBAT" Akademiyasi raisi

**Yulchiev Asilbek Bahtiyorovich**

Andijon davlat universiteti, texnika fanlari nomzodi, Kimyo kafedrası dotsenti, Gmail.com:

**To'lqinov Iqboljon Maxamad o'g'li**

Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrası magistranti,  
tel:+9989993299791

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7891751>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Aprel 2023 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil

Nashr qilindi: 03-May 1 2023 yil

### KEY WORDS

*Na'matak, olxo'ri, qora-qand, xalq tabobati, vitamin.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada chakanda na'matak, olxo'ri va qora-qandning kimyoviy tarkibi va xalq tabobatida bo'g'im kasalliklarida qo'llanilishi o'rganilgan.*

Xalq salomatligi davlatimizning eng qimmatli boyligidir. Uni saqlash davlatimiz va hukumatimiz oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biridir. Xalq tabobati ko'p asrlar oldin rivojlangan, odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan bahramand bo'la boshlagandan buyon dorivor o'simliklardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining qadimiy an'alariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning "Al qonun" asarida 476 taga yaqin o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari va foydalanish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Tabiat ne'matlari tarkibida bo'lgan har bir modda organizm uchun shifobaxsh foydali tomonlari bo'ladi. O'simliklar shunday bir murakkab tuzilishga ega bo'lganki ularning tarkibida biologik faol moddalar sintez qiladi. O'simlik tarkibidagi biologik faol moddalarning miqdori sifati ularning shifobaxshlik xususiyatlarini belgilashda eng muhim omillardan hisoblanadi. Dorivor o'simliklar juda ko'plab kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Chakanda, Na'matak, olxo'ri va qora-qand o'simliklari oziq-ovqat mahsuloti va xalq tabobatida davo vositasi sifatida ishlatiladi. Bu o'simliklar tarkibida uchraydigan biologik faol moddalar xalq tabobatida keng qo'llaniladi. Bu o'simliklar damlamalarini iste'mol qilish bo'g'im kasalliklari bod, ya'ni, revmatizm, artrit, osteoartroz, bo'g'imlarning yemirilishiga olib keladigan yuqumli va tug'ma kasalliklarida bir necha yillardan beri qo'llanib kelinadi.

Chakanda jiydadoşlar oilasiga mansub bo'lib u dorivor o'simlikdir. Chakanda o'simligini dorivor o'simliklar qatoriga qo'shishning

asosiy sababi shundaki, uning mevasi tarkibida karotin, foliy, yog', flavonoidlar, qand, oqsil  
larga boy. Vitaminlardan C, E, B1, B2,

Na'matak atirgullar oilasiga kiruvchi buta bo'lib dorivor o'simlikdir. Mevasining kimyoviy tarkibiga ko'ra S vitamini A, K, P, E, B2 ga boy. Bundan tashqari, kimyoviy elementlar kaliy, kalsiy, temir, magniy, marganets, natriy, fosfor, xrom, mis, kobalt, molibden mavjud (1-jadval). Na'matak meva tarkibida ko'p miqdorda askorbin kislotasi inson immun sistemasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uning muhim foydali jihati P va K vitaminlar inson suyaklarini o'sib mustahkamlanishini taminlaydi.

Olxo'ri mevasining kimyoviy tarkibiga ko'ra vitaminlar A, C, E, PP, B guruhiga mansub vitaminlar, shuningdek, makroelementlar – temir, rux, yod, marganes, xrom, ftor, kremniy, kobalt, nikel mavjud. Shuningdek, unda yengil hazm bo'ladigan qand, organik kislota, dag'al tolali to'qima (kletchatka), foydali uglevodlar, o'simlik oqsili va kam miqdorda yog' uchraydi. Olxo'ri tarkibidagi C vitamini, vitamin PP va organik kislota bo'g'im kasalliklarini davolashda muhim ahamiyatga ega.

Qora-qand — zirkdoshlar (zirkgullilar oilasi)ga mansub butalar turkumiga kiradi. Zirkning mevalari nordon, mazali bo'lganligidan turli xil taomlarga solinadi. Xalq tabobatida artritda, revmatizm, radikulitda, oyoq muskullari shikastlanganda, osteoxondrozda shamollashni oluvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida bu o'simlik qaynatmasi ichiladi, u bilan ho'llangan doka kasal a'zoga qo'yilib komres qilinadi.

Shuning uchun tadqiqotning maqsadi qilib, na'matak, olxo'ri va qora-qand tarkibidagi kimyoviy elementlar, mineral moddalar va vitaminlar miqdorlarini o'rganish va xalq tabobatida foydalanish usullarini o'rganishdan iborat.

### 1-jadval

#### Na'matak, olxo'ri va qora-qandning kimyoviy tarkibi va xalq tabobatida qo'llanilishi

O'simlik turi	Vitaminlar	Kimyoviy elementlar	Xalq tabobatida qo'llanishi
Chakanda	C, E, A, B1, B2	Kalsiy, temir, magniy, marganes, natriy	Revmatizm, artrit, shamollashni oluvchi, og'riq qoldiruvchi
Na'matak	C, A, K, P, E, B2	Kaliy, kalsiy, temir, magniy, marganes, natriy, fosfor, xrom.	Revmatizm, artrit, osteoartroz
Olxo'ri	A, C, E, PP, B	Temir, rux, yod, marganes, xrom, ftor	Revmatizm, artrit, shamollashni oluvchi
Qora-qand	C, K, P, E, B2	Kaliy, kalsiy, temir, magniy, marganes, natriy	Osteoxondrozda shamollashni oluvchi va og'riq qoldiruvchi

O'rganishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sharoitida o'sadigan na'matak, olxo'ri va qora-qand tarkibidagi kimyoviy tarkibi o'rganilganda ular shifobaxsh moddalarga boy ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Na'matak, olxo'ri va qora-qand tarkibidagi kimyoviy elementlar turlari o'rganilganda ular tarkibida organizm uchun muh

im kimyoviy elementlar kaliy, kalsiy, temir, magniy, marganes, natriy, fosfor, xrom borligi aniqlandi. Bundan tashqari, vitaminlardan C, A, K, P, E, B2 borligi undan xalq tabobatida revmatizm, artrit, osteoartroz va boshqa kasalliklarda qo'llash uchun kompozitsiyalar olish mumkinligini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. И.Р.Асқаров. Сирли табобат// Т.: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. Тошкент. 2021й. -Б. 1010.
2. И.Р.Асқаров. Табобат қомуси// Т.: Мумтоз сўз. Тошкент. 2019й. -Б. 1590.
3. М.М.Мўминжонов // Қовуннинг шифобахш хусусиятлари. Халқ табобати журнали. 2021 й. Т. №7. Б.27.

